

2023- yil yanvar – oktabr oyi uchun
dastlabki ma'lumot



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi boshqarmasi:
(73) 241-97-68



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 643,2 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **93,8 mln. AQSH** dollariga yoki **5,4 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 643,2 – 5,4 %**

(2022- y.: **1 737,0**)



Saldo

2023- y.: - **490,5**
(2022 y.: - **331,0**)



Eksport

2023- y.: **576,3 - 18,0 %**

(2022- y.: **703,0**)



Tovarlar: **570,2**



Xizmatlar: **6,1**



Import

2023- y.: **1 066,9 + 3,2 %**

(2022- y.: **1 034,0**)



Tovarlar: **1 064,3**



Xizmatlar: **2,6**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **576,3** mln. AQSH dollariga (**18,0** % ga kamaydi) va import hajmi **1 066,9** mln. AQSH dollariga (**3,2** % ga o‘ydi) yetdi. Hisobot davrida **-490,6** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

XXR	Rossiya	Qozog‘iston	Qirg‘iz Respublik	Turkiya
TSA – 492,8	TSA –430,5	TSA – 189,6	TSA – 93,1	TSA – 78,9
Eksport: 40,5 Import: 452,3	Eksport: 255,5 Import: 175,0	Eksport: 32,1 Import: 157,5	Eksport: 41,8 Import: 51,3	Eksport: 39,8 Import: 39,1
 30,0 %	 26,2 %	 11,5%	 5,7 %	 4,8 %
Afg‘oniston	Eron	Tojikiston	Litva	Polsha
TSA – 42,5	TSA – 33,3	TSA – 33,2	TSA – 32,6	TSA – 22,3
Eksport: 42,2 Import: 0,3	Eksport: 29,5 Import: 3,8	Eksport: 22,5 Import: 10,7	Eksport: 12,3 Import: 20,3	Eksport: 9,9 Import: 12,4
 2,6 %	 2,0 %	 2,0 %	 1,9 %	 1,4 %

Farg'ona viloyati jahonning **80** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**30,0** %), Rossiyada (**26,2** %), Qozog'istonda (**11,5** %), Qirg'iz Respublikasida (**5,7** %), Turkiyada (**4,8** %), va Afg'onistonda (**2,6** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog'iston bilan **1,2** barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Rossiya Federatsiyasi– 80,4



Afg'oniston – 42,0



Eron– 25,7



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Eron va Rossiya Federatsiyasi shular jumlasidandir. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	XXR	362,5	386,2	492,8
	<i>Eksport</i>	91,6	52,8	40,5
	<i>Import</i>	270,9	333,4	452,3
	Rossiya Federatsiyasi	343,5	505,2	430,5
	<i>Eksport</i>	196,3	289,7	255,5
	<i>Import</i>	147,2	215,5	175,0
	Qozog'iston	222,8	204,4	189,6
	<i>Eksport</i>	48,1	22,6	32,1
	<i>Import</i>	174,8	181,8	157,5
	Qirg'iz Respublikasi	116,2	91,7	93,1
	<i>Eksport</i>	79,6	48,1	41,8
	<i>Import</i>	36,6	43,7	51,3
	Turkiya	99,0	134,5	78,9
	<i>Eksport</i>	59,9	79,7	39,9
	<i>Import</i>	39,1	54,8	39,0
	Afg'oniston	30,0	39,1	42,5
	<i>Eksport</i>	30,0	39,0	42,3
	<i>Import</i>	-	0,1	0,3
	Eron	8,8	24,1	33,3
	<i>Eksport</i>	6,1	20,5	29,5
	<i>Import</i>	2,7	3,6	3,8
	Tojikiston	27,0	30,3	33,2
	<i>Eksport</i>	18,0	20,2	22,6
	<i>Import</i>	9,0	10,1	10,7
	Litva	7,4	12,3	32,6
	<i>Eksport</i>	1,2	1,2	12,3
	<i>Import</i>	6,2	17,0	20,3
	Polsha	32,9	40,0	22,3
	<i>Eksport</i>	27,1	28,0	9,9
	<i>Import</i>	5,8	12,0	12,4

Davomi


	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Hindiston	10,2	28,0	22,0
	<i>Eksport</i>	0,3	0,1	0,1
	<i>Import</i>	9,9	27,9	21,9
	Koreya Respublikasi	23,5	29,2	21,2
	<i>Eksport</i>	6,2	3,1	0,4
	<i>Import</i>	17,3	26,1	20,8
	Belarus	10,2	12,0	18,1
	<i>Eksport</i>	5,2	3,8	7,8
	<i>Import</i>	5,0	8,2	10,3
	Germaniya	17,5	21,3	18,1
	<i>Eksport</i>	3,6	4,1	1,1
	<i>Import</i>	13,9	17,2	17,0
	Italiya	7,9	11,0	12,6
	<i>Eksport</i>	2,4	1,6	5,2
	<i>Import</i>	5,5	9,4	7,4
	Syangan	0,9	16,0	11,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	-
	<i>Import</i>	0,8	15,9	11,1
	Shveytsariya	4,6	7,5	9,2
	<i>Eksport</i>	0,1	2,4	0,0
	<i>Import</i>	4,5	5,1	9,2
	Turkmaniston	70,1	31,7	7,1
	<i>Eksport</i>	5,4	26,8	4,8
	<i>Import</i>	64,7	4,9	2,3
	Pokiston	23,2	7,4	6,4
	<i>Eksport</i>	22,8	6,7	5,4
	<i>Import</i>	0,4	0,7	1,0
	Latviya	3,1	2,3	5,5
	<i>Eksport</i>	2,0	1,3	4,2
	<i>Import</i>	1,1	1,0	1,3




FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	2022 yil Mln. AQSh dollari	2023 yil Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati , %da
Farg'ona viloyati	1 737,0	1 643,2	94,6
Farg'ona sh.	334,6	228,6	68,3
Qo'qon	347,1	317,9	91,6
Quvasoy	46,9	53,0	113,1
Marg'ilon	100,3	87,2	87,0
tumanlar			
Oltiariq t.	118,3	141,3	119,4
Qo'shtepa	115,3	89,5	77,6
Bag'dod	22,3	30,7	137,6
Buvayda	34,0	33,0	97,1
Beshariq	48,9	64,0	130,9
Quva	37,5	37,6	100,4
Uchko'prik	195,1	256,5	131,5
Rishton	20,1	20,8	103,7
So'x	8,0	9,8	123,5
Toshloq	147,6	115,5	78,2
O'zbekiston	30,6	34,8	113,7
Farg'ona	57,9	43,3	74,8
Dang'ara	47,6	57,1	120,0
Furqat	19,0	16,5	86,8
Yozyovon	5,4	4,9	91,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri **19,3** % ulush bilan **317,9** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,3** % ulush bilan **4,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,6** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **11,5** % ga kamaydi.



Farg'ona viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,0%** ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **52,4%** ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, **782,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **374,4** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **408,0** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



FARG'ONA VILOYATNING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 430,5
Eksport – 255,5
Import – 175,0



Qozog'iston

TSA – 189,6
Eksport – 32,1
Import – 157,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 93,1
Eksport – 41,8
Import – 51,3



Belarus

TSA – 18,1
Eksport – 7,7
Import – 10,4



Tojikiston

TSA – 32,2
Eksport – 22,6
Import – 10,6



Ukraina

TSA – 4,6
Eksport – 3,9
Import – 0,7



Turkmaniston

TSA – 7,1
Eksport – 4,8
Import – 2,3



Ozarbajjon

TSA – 2,1
Eksport – 2,0
Import – 0,1



Moldova

TSA – 1,1
Eksport – 1,1
Import – 0,0



Armaniston

TSA – 2,9
Eksport – 2,9
Import – 0,0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**55,0 %**), Qozog'iston (**24,2 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**11,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **700** taga yetdi va ular tomonidan **576,3** mln. AQSH dollari (2022- yilning mos davriga nisbatan **18,0** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	703,0	576,3	105,7	82,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	229,1	238,9	102,8	104,3	32,6	41,5
Ichimliklar va tamaki	1,7	1,7	6,7 m.	100,2	0,2	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,2	21,2	109,4	72,8	4,1	3,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,4	2,8	112,2	26,9	1,5	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	4,0 m.	30,7	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	41,2	29,1	2,6 m.	70,6	5,9	5,0
Sanoat tovarlari	327,3	208,3	98,8	63,6	46,5	36,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,9	5,0	193,3	71,7	1,0	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	48,5	63,2	118,5	130,4	6,9	11,0
Xizmatlar	8,7	6,1	60,8	70,0	1,2	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **88,6 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**36,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**41,5 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	180,9	92,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,3	10,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,4	2,5 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1,7	99,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	8,8	58,3
Metal rudalar va metal parchalari	0,8	24,7
Qog'oz massasi va makulatura	9,6	143,6
Xayvonlar va usimliklardan kelib chikkan xom-ashyo materiallari, boshka joyda tasniflanmagan	0,6	150,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2,7	27,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	2,3	102,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,7	163,1
O'g'itlar	19,7	57,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3,3	131,4

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	38,8	12,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3,9	131,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14,1	82,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,8	122,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1,6	139,2
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	1,3	54,6
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1,2	42,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,3	94,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	50,2	153,2
Har xil tayyor buyumlar	4,6	90,2
Poyabzal	2,7	33,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1,5	102,2


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **374,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **10,2 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln.

AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston, Qozog'iston, XXR va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **83,5 %** ni tashkil etdi.



QIRG'ONA VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)








FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rne	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	289,7	255,5	147,6	88,2	1	1
Afg'aniston	39,0	42,3	128,6	108,5	5	2
Qirg'iz Respublikasi	48,1	41,8	60,4	87,0	4	3
XXR	52,8	40,5	57,7	76,7	3	4
Turkiya	79,7	39,9	133,2	50,0	2	5
Qozog'iston	22,6	32,1	47,1	141,9	8	6
Eron	20,5	29,5	3,4 m.	143,6	9	7
Tojikiston	20,2	22,6	112,3	111,7	10	8
litva	1,2	12,3	95,9	10 m.	30	9
Polsha	28,0	9,9	103,1	35,5	6	10
Belarus	3,8	7,8	72,2	204,6	15	11
Pokiston	6,7	5,4	29,4	81,0	12	12
Italiya	1,6	5,2	69,2	318,7	25	13
Turkmaniston	26,8	4,8	4,9 m.	17,9	7	14
Latviya	1,3	4,2	66,8	3,1 m.	27	15
Ukraina	2,9	3,9	67,5	138,0	18	16
Armaniston	1,0	2,9	152,0	2,8 m.	32	17
Ozarbayjon	0,3	2,2	160,9	6,7 m.	28	18
Gruziya	1,3	2,0	166,0	158,8	38	19
Germaniya	0,7	1,8	173,3	2,7 m.	14	20


FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	576,3	82,0
Farg'ona sh.	49,1	71,8
Qo'qon	65,7	43,5
Quvasoy	18,5	82,2
Marg'ilon	17,0	116,9
tumanlar		
Oltiariq t.	106,3	117,9
Qo'shtepa	69,7	172,8
Bag'dod	16,1	101,2
Buvayda	12,9	58,9
Beshariq	13,3	127,0
Quva	28,4	100,0
Uchko'prik	63,3	111,4
Rishton	9,7	60,5
So'x	5,9	91,8
Toshloq	45,3	50,1
O'zbekiston	13,7	133,9
Farg'ona	12,1	34,7
Dang'ara	17,2	104,4
Furqat	7,3	186,8
Yozyovon	4,1	104,8

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Oltiariq tumani **18,4** % bilan **106,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,7** % bilan **4,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-oktabr oylarida **330,0** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2022- yilning mos davriga nisbatan **27,4 %** ga ko'paydi barobarga yoki **71,2** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (77,9 %), Qozog'iston (9,2 %), hamda Qirg'iz Respublikasi (7,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-oktabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **188,6 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,1 %** ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 20,6 mln. AQSH dollari 36,1 ming tonna  43,0 % ↓	Piyoz 12,1 mln. AQSH dollari 41,6 ming tonna  3,2 m. ↑	Tarvuz 6,4 mln. AQSH dollari 20,7 ming tonna  89,7 % ↑	Pomidor 11,4 mln. AQSH dollari 15,4 ming tonna  16,9 % ↓
Xurmo 4,1 mln. AQSH dollari 7,0 ming tonna  42,8 % ↓	Mayiz 5,1 mln. AQSH dollari 6,8 ming tonna  54,2 ↑	Karam 3,9 mln. AQSH dollari 11,6 ming tonna  14,3 % ↓	Qovun 2,5 mln. AQSH dollari 7,2 ming tonna  38,6 % ↑

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-oktabr)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	219,5	140,4	77,9
 Qozog'iston	51,2	16,5	9,2
 Qirg'iz Respublikasi	40,9	14,2	7,9
 Belarus	2,6	2,3	1,2
 Boshqalar	8,6	6,8	3,8





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha **235,6 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **40,8 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **30,3 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (**55,7 %**), paxtadan gazlamalar (**11,1 %**) va trikotaj mato (**13,5 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **170** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **25** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

	2022-yil	2023-yil
Jami	338,0	235,6
Paxtadan yigirilgan ip	255,5	145,8
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	32,3	50,0
Gilamlar	2,0	1,4
Trikotaj mato	11,8	12,1
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	6,2	7,5
Paxtadan gazlamalar	18,6	9,9
Ipak va ipak mahsulotlari	5,3	4,5
Paxta mahsulotlari	4,2	3,4



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, %da *
	Rossiya Federatsiyasi	101,7	85,5	84,0
	XXR	48,1	38,5	80,0
	Turkiya	73,4	32,7	44,5
	Eron	20,2	29,3	144,9
	Qirg‘iz Respublikasi	11,3	11,2	99,5
	Polsha	25,4	7,0	27,6
	Belarus	2,1	5,3	2,5 m.
	Italiya	1,6	5,2	3,1 m.
	Tojikiston	5,2	5,0	96,6
	Ukraina	1,7	2,9	170,4
	Armaniston	1,0	2,8	2,9 m.
	Litva	0,6	2,1	3,5 m.
	Qozog‘iston	1,7	2,1	124,7
	Ozarbajjon	0,6	1,5	2,6 m.
	Boshqa davlatlar	43,4	4,5	10,3



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (**36,3%** – **85,5** mln. AQSH dollari) va XXR (**16,3 %** – **38,5** mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar- oktabr ulushi, % da)



Transport xizmatlari 48,2 %



Moliyaviy xizmatlar 35,0 %



Telekommunikatsiya, kompyuter
va axborot xizmatlari 10,9 %



Safarlar (turizm) 5,9 %



Xizmatlar eksporti hajmi **6,1** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **30,0** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**5,9**%), transport (**48,2** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**10,9** %) va moliyaviy xizmatlar (**35,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **1 066,9** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,2** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**36,7** %), sanoat tovarlari (**22,1** %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**16,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **32,7** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **1 064,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **2,6** mln. AQSH dollariga yetdi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	1 034,0	1 066,9	121,1	103,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	141,2	177,1	136,1	125,4	13,7	16,6
Ichimliklar va tamaki	0,8	1,4	172,5	168,7	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	37,0	35,9	165,9	97,0	3,6	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	164,7	97,4	70,9	59,1	15,9	9,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,0	8,8	36,6	177,1	0,5	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	57,2	82,5	125,7	144,1	5,5	7,7
Sanoat tovarlari	235,4	236,0	144,5	100,3	22,8	22,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	361,8	392,0	146,6	108,4	35,0	36,7
Turli xil tayyor buyumlar	28,4	33,2	129,9	116,7	2,7	3,1
Xizmatlar	2,4	2,6	52,3	105,7	0,2	0,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	94,1	98,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	4,6	107,2
Sabzavotlar va mevalar	16,0	156,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8,4	103,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1,3	166,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
56 bulimga kiritilgandan tashqari ug'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va kimmatbaxh toshlardan tashqari)	7,5	56,8
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato xolatiga keltirilmagan)	4,6	4,9 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1,3	65,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	67,6	44,6
Ko'mir, koks va briketlar	24,5	186,6
Xayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	8,6	175,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	7,6	87,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	17,5	115,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14,7	2,1 m.
Noorganik kimyo moddalari	8,0	121,0

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	56,3	61,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	24,0	87,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	50,3	116,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	12,3	75,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	5,0	189,6.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	113,4	58,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	55,6	81,7
Avtomobillar	51,6	125,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	7,5	87,4
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	11,8	90,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,1	187,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	0,6	103,1



2023-yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **38,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **12,7 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyati **72** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Koreya Respublikasi va Litva) jami importning **85,8 %** tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)




Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	333,4	452,3	123,1	135,7	1	1
Rossiya	215,5	175,0	146,4	81,2	2	2
Qozog'iston	181,8	157,5	104,0	86,6	3	3
Qirg'iz Respublikasi	43,7	51,3	119,2	117,5	5	4
Turkiya	54,8	39,1	140,1	71,3	4	5
Hindiston	28,0	21,9	281,3	78,5	6	6
Koreya Respublikasi	26,1	20,8	150,9	79,9	7	7
Litva	17,0	20,3	2,7 m.	119,6	9	8
Germaniya	17,2	17,0	123,2	99,3	8	9
Polsha	12,0	12,4	2,1 m.	103,6	12	10
Gonkong	15,9	11,0	18 m.	69,1	10	11
Tojikiston	10,1	10,7	111,3	106,2	13	12
Belarus	8,2	10,4	165,7	125,8	15	13
Shveytsariya	5,1	9,2	113,1	180,0	16	14
Italiya	9,4	7,4	169,2	78,7	14	15
Ispaniya	3,4	5,1	2,6 m.	150,7	22	16
Ekvador	0,7	5,0	21,8	7,6 m.	33	17
Eron	3,6	3,8	129,6	107,9	21	18
Belgiya	0,9	3,7	3,7 m.	4,2 m.	29	19
Niderlandiya	0,8	3,7	31,1	4,4 m.	30	20





FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	1 066,9	103,2
Farg'ona sh.	179,6	67,4
Qo'qon	252,3	128,5
Quvasoy	34,5	141,6
Marg'ilon	70,3	81,9
tumanlar		
Oltiariq t.	35,0	124,1
Qo'shtepa	19,8	26,5
Bag'dod	14,5	228,4
Buvayda	20,2	165,7
Beshariq	50,8	132,0
Quva	9,2	101,5
Uchko'prik	193,2	139,7
Rishton	11,2	271,1
So'x	4,0	251,2
Toshloq	70,2	122,9
O'zbekiston	21,1	103,6
Farg'ona	31,2	135,8
Dang'ara	39,9	128,2
Furqat	9,2	60,8
Yozyovon	0,8	56,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri **23,6 %** bilan **252,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,1 %** bilan **0,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI

2023- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **392,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **8,4** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **36,7** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr)



XXR
262,6 mln.
AQSH. dollari



Turkiya
19,2 mln.
AQSH. dollari



Litva
18,3mln.
AQSH. dollari



Hindiston
14,3 mln.
AQSH. dollari




2023- yil yanvar-oktabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,3** mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Farg'ona viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **262,6** mln. AQSH dollari (**67,0** %), Turkiya — **19,2** mln. AQSH dollari (**4,9** %) va Litva – **18,3** mln. AQSH dollari (**4,7** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI








2023- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **236,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,3** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **22,1** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**56,3** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**24,0** mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**50,3** mln. AQSH dollari), qog'oz va karton (**12,3** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.